



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSH AVLOD TARBIYASIGA TA'SIRI

Xolmamatova Farangiz Rustam qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy til va adabiyot yonalishi

Annotatsiya: Maqolada milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan bir paytda yoshlar tarbiyasi va ularga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, "Odnoklassniki.ru", odob-axloq, "Feysbuk", "V.kontakte", "Moymir", Sotsial tarmoqlar, virtual narkotik.

"Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi" Bugungi kunda internetdagi ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Yurtimizda internetdan foydalanuvchilarning aksariyati "Odnoklassniki.ru", "Feysbuk", "V.kontakte", "Moymir" kabi tarmoqlarda o'z profiliga ega. Biroq keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jihatlari ham ko'zga tashlanayotgani ko'pchilikni tashvishga solmoqda. So'rovnomanini o'tkazishdan maqsad ham mazkur masala yuzasidan o'quvchilarimizning fikrlarini o'rganish edi. Bir hafta davomida 110dan ortiq ishtirokchi "Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?" so'rovnomasiga o'z munosabatlarini bildirishdi. Qizig'i shundaki, o'quvchilarning 32 foizi ushbu tarmoqlar do'stlar orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni ma'qullagan bo'lsa, yana shuncha foydalanuvchi tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan olgan. Demak, bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko'ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda.

Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan. Xalq tilida internet - o'rgimchak trri. Mening nazarimda esa ijtimoiy tarmoq - dengizga o'xshaydi. Unda suzish ham, cho'kish ham o'zimizga bog'liq. Lekin internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi keskin darajada o'sishiga olib keldi. Aynan shu taraqqiyot vositasidan foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda. Shu sababli biz yoshlar bu g'oyalarga chalg'imasdan, to'g'ri mulohaza qilib ilm o'rganish yo'lida yurishimiz kerak. Jumladan, Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang



maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojia'dir". Internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan ba'zi yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot, xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Hakkerlar o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida yoshlarda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real voqealardan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Yoshlar kamolotiga, ularning hulqatvoriga va intellektiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Bu o'rinda esa albatta, jamiyatda alohida nufuzga ega bo'lgan internet vositalarining roli beqiyosdir. Muhtaram Prezidentimiz

I.Karimov o'zlarining bir qator ma'ruzalarida "Biz butun dunyoni qurshab olgan internetni cheklay olmaymiz" – deb ta'kidlab o'tganlar.

Bugungi kunda mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi mal'umotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etmoqda. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro muloqot almashish yoki biror voqeaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Bunday tarmoqlar ilk bor odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqning elektron pochta ko'rinishida paydo bo'ldi. Bu kompyuter tarmoqlari orqali bog'lanishning ilk ko'rinishi edi.

"Ijtimoiy tarmoq" tushunchasi 1954-yilda paydo bo'lganini va albatta, internetga hech qanday aloqasi yo'qligini hamma ham bilmaydi va ular bu hodisani o'tgan asrning 30-yillarida o'rganishni boshladilar. Konsepsiyani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: "ijtimoiy tarmoq" - bu ijtimoiy obyektlar (odamlar va tashkilotlar) va ular o'rtasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar) bo'lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilmadir - deb ta'kidlaydi" va shu tariqa ijtimoiy tarmoq tushunchasi paydo bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o'z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonoff va Rapoport o'tgan asr o'rtalarida muloqotning virtual ko'rinishi haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o'tishgan. Internet tarmog'ida insonlar o'rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



faoliyati bilan bog'lashadi. Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning iloji yo'q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini o'ynaydi. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo'lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o'zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Shuningdek, yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimni oshirishda mazkur axborot manbalari mu ahamiyatga ega.

Endi ijtimoiy tarmoqlarning bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga, ongimizga, aql-u shuurimizga va sog'lig'imizga salbiy ta'sirini ham unutmasligimiz kerak. Ammo ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlari ham bor. Biz kundalik hayotda odamlar bilan jonli muloqotda bo'lamiz, jonli fikr almashishamiz va o'zimizga kerakli bo'lgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa insonni tamomila dunyoqarashi va ongini o'zgartirib yuborishi mumkin. Undan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar g'arazgo'y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishi mumkin. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan axborot va xabarlar boshqalar tomonidan o'g'irlanishi, buzilishi va boshqa tarmoq a'zolariga yuborilishi mumkin. Yoki firibgarlar qalbaki rasmlar va yolg'on ma'lumotlar bilan o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hatto ijtimoiy tarmoqlar butun boshli qotilliklar, urushlarga ham sabab bo'ladi.

Yoshlarni internetdan foydalanmasligini cheklashni imkoni yo'q, shu sababli, ota-onalar bolalariga ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatishlari kerak. Masalan, farzandlari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoca bo'lganida uni nazoratdan chetda qoldirmaslik, farzandla internetda faqatgina "yaxshi" emas, balki "yomon" axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntirish, ularning internetdan foydalanishiga ba'zi hollarda cheklovlarni o'rnatish kerakligini unutmasliklari lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bo'sh vaqtini faqat ijtimoiy tarmoqlarda o'tirish bilan o'tkazishlari noto'g'ri. Chunki jonli, haqiqiy va real muloqot o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Yoshlar ko'proq kitob o'qishlari, o'z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faollik hech narsani belgilamaydi va inson to'g'risida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni saqlashi mumkin. Biz ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga bo'lgan ta'sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda ijtimoiy tarmoq a'zosi bo'la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay olishimiz lozim. Bundan tashqari, internetning ham inson hayotida zarari yo'q emas. Ayniqsa, bu yoshlar o'rtasida ko'p uchramoqda. Internetning inson ruhiyatiga birinchi salbiy ta'siri barqaror qaramlikdir. Yoshlar qanday qilib kompyuterda soatlab o'tirganini va u o'tayotgan hayotni sezmayotgani insoniyat uchun muammo hisoblanadi. Buning oqibatida esa, bolada internetga bo'lgan qiziqish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi, u oila va do'stlar bilan vaqt o'tkazishni, maktabga borishni, uy vazifalarini bajarishni istamasligiga olib keladi, o'z vaqtini boshqarishni yo'qotadi. Buning oldini olish uchun esa, ota-onalar bolalariga e'tibor berishlari, ular uchun vaqt ajratishlari, ularning ilm egallash, kasb tanlash, hunar o'rganishga bo'lgan istaklari bilan qiziqishlari lozim.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Toshkent shahri, 2021-yil 26-mart.
2. Ziyouz.com
3. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar>
4. Bekmirov, T. R. (2020). Psychological features of adaptation and integration of children with developmental disabilities. Pedagogy and psychology in the modern world: theoretical and practical research, 125-129.